

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL



Avgust №8, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:

3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 551-sahifa.

E'lon qilishga 2026-yil 28-avgustda
ruxsat etildi.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

ULUG'BEK NURULLAYEV

Tomorqa xo'jaliklari faoliyatidan olingan daromadga noqishloq xo'jaligi faoliyati ta'sirini iqtisodiy baholash.....8

RO'ZMAMATOV ABBOS TOLIBJON O'G'LI

O'zbekistonda chakana savdo tarmog'ining tarkibiy o'zgarishlari va savdo xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlari.....17

АЙТМУРАТОВА УЛБИКЕ ЖАЛГАСОВНА

Развитие методических подходов к комплексной оценке эффективности привлечения финансирования акционерными обществами через рынок капитала.....26

BAXRONOVA NILUFAR SUNNAT QIZI

Raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot integratsiyasining innovatsion iqtisodiy o'sishga ta'sir mexanizmlari.....36

KARAMATOVA NOIBA HUSNITDINOVNA

Korxonada ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish yo'nalishlari.....44

VEI ZHIBO

Madaniy meros turizmida raqamli kommunikatsiya, jamoatchilik ishtiroki va inklyuziv o'sish – Samarqand misolida.....53

ISMIGUL ABDULLAYEVA

Improving data management systems of small and medium enterprises through cloud technologies in the digital economy.....65

ABDURAYIMOV KAMOLIDDIN XURRAM O'G'LI

Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligining amaldagi iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili.....70

KABILOVA SHAHNOZA JURAYEVNA, XALIMOV JAVLON

SHAXRIYOROVICH
Iste'molchilarga xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik biznesni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari: hududiy differensiatsiya tahlili (Qashqadaryo viloyati misolida).....80

UMAROVA SHAXLO ABDUVALIYEVNA

Strategik moliyaviy hisob tizimini tashkil etishning konseptual yondashuvlari va tarkibiy elementlari.....87

HOU MANPING, CUI HUIFANG

Lessons from China for ecological protection and restoration of the Aral sea basin.....102

SHADMANOV ZUHRIDDIN ZOKIRXODJAYEVICH

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanishini baholash.....113

BADALOVA NIGORA NORKULOVNA

Davlat boshqaruvini raqamlashtirishning xorijiy modellari va ularni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlari.....126





ZHU YU MING

The collaborative logic of digital transformation of China's tourism infrastructure.....137

ИСАЕВА АЙЖАН

Цифровая трансформация туризма как механизм структурной диверсификации сферы услуг.....152

KARIMOVA MAFTUNA NURDINOVNA

“Yashil” qo‘shilgan qiymat: organik, halol va karbon-neytral sertifikatlarining O‘zbekiston mahsulotlari narxiga ta’siri.....166

XABIBULLAYEV ANVAR SHOVIKAT O‘G‘LI

Zamonaviy boshqaruv modellari asosida aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy menejment tizimini takomillashtirish.....177

SAPAYEV SINDOR QADAMBOY O‘G‘LI

Mintaqaviy innovatsion infratuzilma subyektlari o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik rivojlanishi: qiyosiy tahlili.....185

SAIDOVA DILDORA NURMATOVNA

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida oziq-ovqat xavfsizligining ta’minlanishi.....194

UMAROV AZIZJON AZAMJON O‘G‘LI

Risklarning kichik biznes korxonalariga iqtisodiy ta’siri.....201

AZAMQULOV NURBEK ULUG‘BEK O‘G‘LI

Mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishning hozirgi holati hamda bug‘doy yetishtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....207

BAXTIYAROVA SABOHAT BAXTIYAROVNA

Raqamli transformatsiya sharoitida rahbarlarning strategik liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish.....214

BOZOROVA MUXABBAT TO‘XTAYEVNA

Davr xarajatlari hisobini takomillashtirish.....221

DJURAYEV OLIMJON NARKULOVICH

Xizmatlar iqtisodiyotida mehnatni ratsional tashkil etishning zamonaviy konsepsiyalari va iqtisodiy samaradorlikni oshirish mexanizmlari.....230

KURBONOV BAXODIR ERGASHEVICH

Transfert narxlarning iqtisodiy mohiyati va ularni shakllantirishning nazariy-uslubiy asoslari.....243

FAXRIDDINOV ABDULHAKIM ZIYAUDDINOVICH

Yangi O‘zbekistonda sabzavotchilik tarmog‘ini rivojlantirish istiqbollari.....249

OMONQULOV BEKZOD TURSUNALI O‘G‘LI

Kichik biznesning innovatsion rivojlanish strategiyasini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari.....256

KARIMOV INOMJON ORTIKBAEVICH

Qurilish sanoatida investitsiyalarni jalb qilishni boshqarishning xorijiy modellari va ularni o‘zbekiston amaliyotiga moslashtirish imkoniyatlari.....267

TURDIQULOV FARRUX RAVSHANJON O‘G‘LI

O‘zbekistonda kichik biznesning bandlik va YAIMdagi ulushlari nomutanosibli: milliy va hududiy statistik tahlili.....277





RISKLARNING KICHIK BIZNES KORXONALARIGA IQTISODIY TA'SIRI

UMAROV AZIZJON AZAMJON O'G'LI

Qo'qon universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: aumarov@kokanduni.uz

ORCID: 0009-0002-9066-9463

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik biznes korxonalarida yuzaga keladigan iqtisodiy risklar, ularning turlari va korxona faoliyatiga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish orqali kichik biznes samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: risk, kichik biznes, iqtisodiy xavf, moliyaviy barqarorlik, risklarni boshqarish, tadbirkorlik.

Аннотация. В данной статье анализируются экономические риски, возникающие в малом бизнесе, их виды и влияние на деятельность предприятия. Также рассматриваются вопросы повышения эффективности малого бизнеса путем совершенствования механизмов управления рисками.

Ключевые слова: риск, малый бизнес, экономический риск, финансовая стабильность, управление рисками, предпринимательство.

Abstract. This article analyzes the economic risks that arise in small businesses, their types and impact on the activities of the enterprise. It also discusses the issues of increasing the efficiency of small businesses by improving risk management mechanisms.

Keywords: risk, small business, economic risk, financial stability, risk management, entrepreneurship.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida kichik biznes subyektlari milliy iqtisodiyotning eng muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda. Ular iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromad manbalarini kengaytirish hamda bozor muhitida sog'lom raqobatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik biznes iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, kichik biznes subyektlari o'z faoliyatini yuqori darajadagi noaniqlik va turli xil risklar sharoitida olib boradi. Bozor munosabatlarining chuqurlashuvi, globallashtirish jarayonlarining tezlashuvi va iqtisodiy muhitning o'zgaruvchanligi kichik biznes faoliyatida xavf-xatarlarning ko'payishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, makroiqtisodiy beqarorlik, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi, raqobatning keskinlashuvi hamda texnologik o'zgarishlar kichik biznesning barqaror faoliyat yuritishiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Kichik biznes subyektlari yirik korxonalarga nisbatan resurslar, kapital va boshqaruv imkoniyatlari jihatidan ancha cheklangan bo'lgani sababli, ular risklarga nisbatan ko'proq ta'sirchan hisoblanadi. Har qanday kichik salbiy o'zgarish ham ularning moliyaviy barqarorligiga, operatsion faoliyatiga va bozordagi pozitsiyasiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, risklarning iqtisodiy ta'sirini chuqur o'rganish va ularni samarali boshqarish





mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Tadqiqotda kichik biznes faoliyatida yuzaga keladigan asosiy risklar, ularning shakllanish omillari hamda iqtisodiy faoliyatga ko'rsatadigan ta'siri kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — kichik biznes subyektlarida risklarning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash, ularning o'zaro bog'liqligini ochib berish va risklarni boshqarishning samarali yo'nalishlarini asoslab berishdan iborat.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida moliyaviy oqimlar, bozor talabi, ishlab chiqarish jarayonlari, resurslar taqsimoti va mehnat munosabatlari bilan bog'liq xavflarning kichik biznes faoliyatiga ta'siri tahlil qilinadi. Ushbu omillar asosida risklarning tizimli xarakteri ochib berilib, ularning korxona barqarorligiga ta'siri ilmiy asosda yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kichik biznes faoliyatida risklarni boshqarish va ularning iqtisodiy ta'sirini o'rganish masalasi iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Xususan, xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan risk tushunchasi, uning turlari va boshqaruv mexanizmlari turli yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Risk tushunchasiga ilk ilmiy yondashuvlar iqtisodiy nazariyada noaniqlik bilan bog'liq holda shakllangan. Jumladan, Frank Knight risk va noaniqlik tushunchalarini farqlab, riskni ehtimollik asosida baholanadigan hodisa sifatida izohlaydi. Uning fikricha, tadbirkorlik faoliyatida risk muqarrar bo'lib, foyda olish aynan riskni o'z zimmasiga olish bilan bog'liq.

Keyinchalik Peter Drucker risklarni boshqarish masalasiga alohida e'tibor qaratib, ularni samarali boshqarish korxonaning strategik muvaffaqiyatini belgilovchi omil ekanligini ta'kidlaydi. Uning yondashuviga ko'ra, risklar nafaqat xavf, balki yangi imkoniyatlar manbai sifatida ham ko'rilishi lozim. Zamonaviy tadqiqotlarda kichik biznesdagi risklar ko'proq tizimli yondashuv asosida o'rganilmoqda. Xususan, Douglas Hubbard risklarni o'lchash va baholashning kvantitativ usullarini taklif etib, qaror qabul qilishda ma'lumotlarga asoslangan yondashuvning ahamiyatini asoslab beradi.

MDH mamlakatlari olimlari tomonidan ham kichik biznesda risklarni boshqarish masalalari keng o'rganilgan. Ularning tadqiqotlarida kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari cheklanganligi, bozor kon'yunkturasiga yuqori darajada bog'liqligi va tashqi muhit o'zgarishlariga nisbatan sezgirliigi asosiy muammo sifatida ko'rsatiladi. Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa O'zbekiston sharoitida kichik biznesni rivojlantirish, uning barqarorligini ta'minlash va risklarni kamaytirish yo'llari tahlil qilingan. Ushbu ishlarda makroiqtisodiy barqarorlik, moliyaviy infratuzilma rivoji va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati alohida ta'kidlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda kichik biznes faoliyatida risklarning iqtisodiy ta'sirini o'rganish uchun kompleks ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot





jarayonida quyidagi usullar qo'llanildi: Tahlil va sintez usuli – kichik biznes faoliyatidagi risk omillarini ajratib ko'rsatish va ularning o'zaro bog'liqligini aniqlashda foydalanildi. Tizimli yondashuv – risklarni alohida emas, balki o'zaro bog'liq tizim sifatida o'rganish imkonini berdi. Taqqoslash usuli – turli iqtisodiy sharoitlarda risklarning ta'sir darajasini solishtirishda qo'llanildi. Statistika tahlil – kichik biznes faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni miqdoriy baholashda foydalanildi. Ekspert baholash usuli – risklarning ehtimoli va ta'sir darajasini aniqlashda qo'llanildi. Tadqiqotning axborot bazasini ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari, milliy statistika ma'lumotlari hamda kichik biznes subyektlari faoliyatiga oid ochiq manbalar tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot natijalari kichik biznes subyektlari uchun risklarni erta aniqlash, ularni baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, tadqiqot xulosalari kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan strategik qarorlarni qabul qilishda muhim ilmiy-uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.


Kichik biznes faoliyatida yuzaga kelish ehtimoli bor xavflarning shakllanish omillari ko'p qirrali bo'lib, ularni chuqur tahlil qilish kichik biznesning rivojlanish strategiyasini ishonchli asoslar bilan ta'minlashga xizmat qiladi. Birinchidan, makroiqtisodiy beqarorlik kichik biznes uchun eng katta tizimli tahdidlardan biri bo'lib, inflyatsiya darajasining o'zgaruvchanligi, valyuta kurslarining beqarorligi yoki foiz stavkalarining keskin siljishi kabi holatlar kichik bizneslar tomonidan uzoq muddatli rejalashtirish va sarmoya strategiyasining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu xavfqa qarshi ehtiyot chorasi sifatida kichik biznesdan risklarni aniqlash va monitoring qilish tizimini yo'lga qo'yish, ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish talab etiladi. Moliyaviy resurslarga kirish cheklanganligi kichik biznesning o'sish sur'atlarini sezilarli darajada sekinlashtiradi. Kredit olish imkoniyatining pastligi, garov ta'minotiga qo'yiladigan yuqori talablar va moliyaviy vositalarning cheklanganligi mavjud likvidlik muammolarini yanada kuchaytiradi. Shu bois kichik biznes uchun moliyaviy zahiralarni shakllantirish, o'z mablag'larini strategik boshqarish va daromadlarni diversifikatsiya qilish zarur hisoblanadi.

Raqobatchilarning keskin narx siyosati kichik bizneslarni bozorda uzoq muddatli pozitsiya egallashda zaiflashtiradi. Yirik kompaniyalar tomonidan qo'llaniladigan narx urushlari kichik subyektlarni rentabellik nuqtasidan chetlashtirib, iste'molchilar bazasini yo'qotishga olib keladi. Bunday holatda, kichik biznesdan raqobatbardosh narx va xizmat siyosatini ishlab chiqish, qo'shimcha qiymat yaratish va differensiallashgan xizmat ko'rsatish talablari kelib chiqadi. Texnologik xavfsizlik tahdidlari, ayniqsa raqamli muhitda, kichik bizneslar uchun tobora kuchayib bormoqda. Kiberxavfsizlik choralarining zaifligi, axborot oqimi ustidan nazoratning yetarli emasligi va texnologik infratuzilmaning eskirganligi ularni tashqi tahdidlarga ochiq qiladi. Bu tahdidlar



fonida texnologik yangilanishlarni amalga oshirish va kiberxavfsizlik choralari kuchaytirish kichik biznes uchun zaruriy talabga aylanadi.

Mehnat resurslari tanqisligi va kadrlar oqimi kichik bizneslarning xizmat sifati va operatsion barqarorligiga bevosita ta'sir etadi. Kichik biznes subyektlariga qo'yiladigan talablar iqtisodiy omon qolishning strategik zaruriyati sifatida ko'riladi. Risklarni erta aniqlash va monitoring qilish, moliyaviy zahiralarni shakllantirish, texnologik yangilanishni jadallashtirish, kadrlar salohiyatini oshirish va kiberxavfsizlik choralari kuchaytirish nafaqat xavfni kamaytirish, balki uning iqtisodiy ta'sirini yengillashtirishning eng asosiy vositalaridir (1-rasm).



Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

1-rasm. Risklarning kichik biznes korxonalariga iqtisodiy ta'siri

Moliyaviy oqimlar orqali risklarning ta'siri kichik biznesning barqarorligini izdan chiqaradigan asosiy tahdiddir. Naqd pul oqimlarida yuzaga keladigan uzilishlar, qisqa muddatli likvidlik inqirozi va ortib borayotgan kredit yuki korxonaning moliyaviy mustahkamligiga putur yetkazadi. Ayniqsa, tashqi moliyalashtirish imkoniyatlari cheklangan bo'lgan holatlarda, bu omillar korxona faoliyatining to'xtashiga olib kelishi mumkin.

Bozor talabining beqarorligi kichik biznesni rejalashtirish va sotuv strategiyalarida noaniqlikka olib keladi. Talab hajmining o'zgarishi,



iste'molchilarning afzalliklaridagi siljishlar va iqtisodiy sikllar korxona daromadiga bevosita ta'sir qiladi. Natijada, mahsulot zahiralari ortiqcha to'planadi yoki yetishmaydi, bu esa rentabellikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarda yuzaga keladigan risklar, masalan, texnologik eskirish, yetkazib berishdagi uzilishlar va infratuzilma cheklovlari, ishlab chiqarish samaradorligini pasaytiradi. Ushbu holatlar xizmatlar sifatini izdan chiqaradi, yetkazib berish muddatlari cho'ziladi va xaridor ishonchi susayadi.

Xarajatlar va resurslar bilan bog'liq risklar ham dolzarb ahamiyatga ega. Resurslar narxining global yoki milliy miqyosda o'zgarishi, energiya va logistika xarajatlarining ortishi kichik biznesni raqobatdosh narx siyosatini yuritishda qiyin ahvolda qoldiradi. Bunday vaziyatda korxonalar rentabellik darajasini saqlab qolish uchun sifatdan voz kechish yoki iste'molchilarni yo'qotish xavfi ostida qoladi. Mehnat resurslari bilan bog'liq risklar kadrlar oqimi, malakali xodimlarni ushlab qolishdagi qiyinchiliklar va mehnat bozoridagi raqobat kuchayishi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu holatlar xizmat ko'rsatish darajasi va mijozlar bilan aloqalarning izchilligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Qonunchilik va tartibga solishdagi o'zgarishlar kichik biznes uchun yangi byurokratik to'siqlarni keltirib chiqaradi. Soliq yukining ortishi, litsenziyalash talablari yoki reglamentlarning tez-tez o'zgarishi kichik korxonalarda moslashuvchanlik imkoniyatlarini cheklaydi.

Ushbu risklarning har biri alohida iqtisodiy ta'sir doirasi keng oqibatlarga olib keladi, ammo ular o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, tizimli tahlilni talab qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kichik biznes faoliyatida risklar ko'p qirrali va o'zaro bog'liq xarakterga ega bo'lib, ular korxonaning moliyaviy barqarorligi, operatsion samaradorligi va bozordagi raqobatbardoshligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xususan, makroiqtisodiy beqarorlik, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi, bozor talabining o'zgaruvchanligi, texnologik omillar va mehnat resurslari bilan bog'liq muammolar kichik biznes faoliyatida asosiy risk manbalari sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu risklar nafaqat alohida holda, balki o'zaro ta'sirlashgan holda korxona faoliyatiga kompleks salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- Kichik biznes subyektlarida risklarni erta aniqlash va monitoring qilish tizimini joriy etish;
- Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun zaxira fondlarini shakllantirish va pul oqimlarini samarali boshqarish;
- Bozor risklarini kamaytirish maqsadida mahsulot va xizmatlarni diversifikatsiya qilish;
- Texnologik risklarni kamaytirish uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish va kiberxavfsizlik choralarini kuchaytirish;





- Mehnat resurslari bilan bog'liq risklarni kamaytirish uchun kadrlar malakasini oshirish va motivatsiya tizimini takomillashtirish;

- Davlat tomonidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish.

Kichik biznes subyektlarida risklarni samarali boshqarish nafaqat xavflarni kamaytirish, balki ularning iqtisodiy ta'sirini yumshatish va barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Leshno, M., & Goldhaber-Fiebert, J. D. (2026). Potential Paths Forward from "On Representations and Quantifications of Uncertainty". Medical Decision Making, 46(5), 531-532.

2. Drucker, P. F. (2007). Management challenges for the 21st century. HarperBusiness.

3. Hubbard, D. W. (2014). How to measure anything: Finding the value of intangibles in business (3rd ed.). Wiley.

4. Damodaran, A. (2012). Investment valuation: Tools and techniques for determining the value of any asset (3rd ed.). Wiley.

5. Hopkin, P. (2018). Fundamentals of risk management: Understanding, evaluating and implementing effective risk management (5th ed.). Kogan Page.

6. OECD. (2021). SME and entrepreneurship outlook 2021. OECD Publishing. <https://doi.org/10.1787/97a5bbfe-en>

7. World Bank. (2020). Small and medium enterprises (SMEs) finance. World Bank Group. <https://www.worldbank.org>

8. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. (2023). Kichik biznes va tadbirkorlik statistikasi. <https://stat.uz>

9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). Pul-kredit siyosati sharhi. <https://cbu.uz>



Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**